



Erkin A'zam asarlarida hajv va ijtimoiy dard tahlili (“Farrosh kampirning tushi” komediyasi misolida)

Xo'shvaqtova Nazira

Nizomiy nomidagi O'zMPU Filologiya fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 401 - guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli adib Erkin A'zamning “Farrosh kampirning tushi” hajviy dramasi tahlil qilinadi. Asarda byurokratiya, amalparastlik va ma'naviy qashshoqlashgan “bekorchixona” ahli hayoti kulgi ostiga olinadi. Maqolada Rahbar Rahbarovich, Farrosh kampir kabi qahramonlar misolida insoniy qiyofasini yo'qotayotgan amaldorlar fosh etilishi, asarning ramziy ma'nolari va muallifning badiiy mahorati ilmiy nuqtayi nazardan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Erkin A'zam, hajv, komediya, bekorchixona, Rahbar Rahbarovich, Farrosh kampir, tush, ramziylik, byurokratiya, ijtimoiy dard.

Hozirgi o'zbek dramaturgiyasida ijtimoiy illatlarni fosh etuvchi hajviy asarlar alohida o'rin tutadi. O'zbek adabiyotida inson ruhiyati, uning zamon bilan o'zaro aloqasi va ijtimoiy hayotdagi o'rni masalalarini yuksak badiiy tasvirlagan ijodkorlardan biri Erkin A'zamdur. Adib ijodi haqida ko'pgina tanqidchi – olimlar, adabiyotshunoslar o'zlarining fikrlarini bildirishgan.

Ozod Sharafiddinov Erkin A'zam ijodini yuqori baholab, o'zining eng mashhur asari “Ijodni anglash baxti” kitobida o'z fikrlarini bildirgan: “Erkin A'zamda bir fazilat bor: u o'zi yaxshi bilmagan narsani yozmaydi. Uning asarlaridagi piching, kinoya va qochiriqlar shunchaki kulgi uchun emas, balki jamiyatdagi illatlarni kuydirib tashlash uchun xizmat qiladi.”¹

Haqiqatan, Erkin A'zam ijodi boshqa yozuvchilardan tubdan farq qiladi. Adib ijodi haqida N. Karimov, M. Qo'shjonov va boshqa ko'plab adabiyotshunos, tanqidchilar fikr bildirishgan. Erkin A'zam asarlari o'zining yumorga, kinoyaga boyligi bilan ajralib turadi. Muallif piching va kinoyalari orqali jamiyatdagi illatlarni, mansabparastliklarni ochib beradi.

Yozuvchining “Farrosh kampirning tushi” komediyasi shunday asarlar sirasiga kiradiki, unda muallif jamiyatning yopiq va foydasiz tizimlarini *bekorchixona* timsolida mahorat bilan chizib beradi. Dramaning dolzarbligi shundaki, undagi qahramonlar nafaqat o'tgan asr, balki bugungi kunning ham og'riqli nuqtalarini ko'rsatib berishi bilan ahamiyatlidir.

Sarlavhaning o'zidayoq yozuvchining o'ziga xos kinoyasi aks etganini ko'rishimiz mumkin. Asarda ishining tayini bo'lmagan tashkilot xodimlarining hayotidan bir hangoma hikoya qilinadi. Asarda bekorchixona axllari Rahbar Rahbarovich, Muovin buva, Gulibarno, Hisobchixon, Iqtisodchi xonim, Bo'lim

¹ Ozod Sharafiddinov. “Ijodni anglash baxti”. Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2004-yil, 284-bet.

boshlig'i, Bosh mutaxassis, Mutaxassis xonim, Haydovchi yigit, Farrosh kampir va boshqalar ishtirok etadi.

Drama ikki qismdan iborat. Birinchi qism "Oshgacha", ikkinchi qism "Oshdan keyin" deb nomlangan. Asar 2011 – yilda "Yoshlik" jurnalida chop etilgan. Muallif bu joyni: *"Boshiga "kulfat" tushgan bir bekorchixona hangomasi"* deb ta'riflaydi. Idoraning ko'chishi haqidagi xabar barcha xodimlarning asl qiyofasini ochib beruvchi vosita vazifasini o'taydi.

Hangoma bir tashkilotda ishlaydigan farrosh kampir Qumri opaning tushida sodir bo'ladi. Shuning uchun ham hangoma "Farrosh kampirning tushi" deb nomlandi. Hangomada farrosh kampirning tushida u ishlaydigan tashkilot Qo'yliqqa ko'chishi haqida xabar tarqaladi. Shu ishonchsiz ma'lumot asosida tashkilot xodimlari yangi ko'chiladigan binodagi xonalar ustida talashish-tortishish, eski binodagi eski jihozlarga egalik qilish haqida munozaralar boshlanib ketadi.

Bu dramada ajib voqealar hangoma qilinadi. Yozuvchi jamiyatimiz aholisining davlat beradigan pulga yashab, tekinxo'r va boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgani ustidan zaharxanda kulgi bilan kuladi. Asarda tasvirlangan Bekorchixona tashkiloti a'zolarining qiladigan tayinli ishi yo'q, ertalabdan kechgacha nahor osh va kechki oshni kutib yashaydi.

Menimcha adib hangomani bejizga ikki qismga bo'lib tasvirlamagan ya'ni birinchi qism "oshgacha", ikkinchi qism "oshdan so'ng". E.A'zam hangomada milliy turmushimizda uchraydigan nahorgi oshlar va oshdan so'ng lanj bo'lib, ishlashni xohlamaydigan yalqov insonlarni tanqid ostiga olgan deyishimiz mumkin.

Hangomada davomida biror marta kimligi oshkor qilinmagan Akaxon rahbar Rahbar Rahbarovichga o'zining rahbarlik faoliyati haqida tavsiyalar beradi. Masala: *"Hech qachon qo'l ostidagi xodimlarga yo'l-yo'lakay, ko'cha-ko'yda topshiriq yoki tanbeh berilmaydi. Bir og'iz gap bo'lsa ham albatta kabinetga chaqirib aytiladi. Mansab kursisining sehr-salobati bo'lakcha!"*.

Ikkinchisi: *"Ertalab ishga kelganda dastavval bir varaq qog'oz olib, bugun bajariladigan yumushlar ro'yxat qilinadi. Ro'yxatning boshida albatta shaxsiy masalalar tursin. Davlat ishlari o'z-o'zidan bo'laveradi"*. Muallif jamiyat aholisini sinchkovlik bilan kuzatadi va davlat ishiga yuzaki qarab, faqat o'zining shaxsiy manfaatlari yo'lida va shaxsiy muammolarini yechish bilan ovvora bo'layotgan manqurt kimsalar tasvirlangan. Dramada qatnashgan har bir qahramon jamiyatimizdagi salbiy va yovuz illatlarni o'zida tashuvchi odamlar ekanligini ko'rsatadi.

Dramadagi Rahbar Rahbarovich obrazi o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmagan rahbar sifatida fosh etilgan. Uning telefonda Akaxon deb ataluvchi shaxsga bo'lgan muteligi, hatto eng oddiy ko'rsatmalarni ham "tabarruk" bilib bloknotiga yozishi (masalan: 'Mansab kursisining sehr-salobati bo'lakcha!') tizimning chiriganligidan dalolat beradi.

Dramada yagona mehnatkash va uyg'oq qahramon Farrosh kampirdir. Uning tushi asar g'oyasini ochuvchi kalitdir. Erkin A'zam personajlar tilidan foydalanishda (nutqiy xarakteristika) yuksak mahorat ko'rsatgan. Muovin buvaning eskicha qarashlari, Kotibaning pishiq-puxtaligi uning nutqidagi kinoyaviy bo'yoqlar orqali

ochiladi. Yozuvchi shunchaki kuldirmaydi, balki o‘quvchini bu “bekorchixonalar” bizning hayotimizda qanchalik ildiz otgani haqida o‘ylashga majbur qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Farrosh kampirning tushi” komediyasi ijtimoiy hajvning yuksak namunasi hisoblanadi. Erkin A‘zam ushbu asar orqali jamiyatni tozalashga, odamlarni amaldan ko‘ra insoniylikni ustun qo‘yishga chorlaydi. Asarning badiiy kuchi uning hayotiyligi va obrazlarining haqqoniyligidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ozod Sharafiddinov. “Ijodni anglash baxti”. Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2004 - yil, 284 - bet.
2. Erkin A‘zam. Farrosh kampirning tushi (komediya). “Yoshlik” jurnali, 2011-yil, 10-son.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Erkin_A%CA%BCzam